TUMAN HOKIMINING QARORI

**2021 yil «11» yanvar № 03 Langar qishlog'i**

**Tuman hududidagi barcha davlat tasarrufidagi va shaxsiy avtomototransportlar, tirkamalar va yarim tirkamalarni 2020 yilgi majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi "Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida"gi qonuniga muvofiq (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. 2013 y. 15-son 197-modda), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2003 yil 31-yanvardagi "Transport vositalarini majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash xaqida"gi 54-sonli qarori (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2013 y. 1-2-son 17-modda) va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2017 yil 22-dekabrdagi "Transport vositalarini majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish tartibini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 1010-sonli qarori (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 2017 y. 09/17/1010/0461-son) ijrosini ta'minlash maqsadida

**QAROR QILAMAN:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2017 yil 22-dekabrdagi 1010-sonli "Transport vositalarini majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish tartibini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori raxbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qaror bilan:

2019 yil 1 yanvardan boshlab jismoniy shaxslarga tegishli yengil avtotransport vositalari tadbirkorlik sub'yektlari yuridik shaxslar tomonidan majburiy texnik ko'rikdan o'tkazilishi belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Qo'shtepa tumanida transport vositalarini majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish bo'yicha komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq, Qo'shtepa tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning avtomototransport vositalarini majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tumanda tijorat asosida yo'lovchilar tashish uchun foydalaniladigan yengil avtomobillar, avtobuslar va o'rindiqlar soni 8 ta va undan ortiq bo'lgan (haydovchi o'rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jixozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og'ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularning tirkamalari bir yilda ikki marta, birinchi marta 1 martdan 30 iyungacha, ikkinchi marta 12 sentyabrdan 31 oktyabrgacha texnik ko'rikdan o'tkazilsin.

5. Avtotransport vositalarini texnik ko'rikdan o'tkazilganlik uchun qonun xujjatlarida belgilangan tartibda yig'im undirilsin.

6. Komissiya tarkibiga kiritilgan mutaxassislarni asosiy ish joyidan oylik ish haqi va lavozimi saqlangan holda tuman ichki ishlar bo'limi yo'l harakati xavfsizligi guruhi ixtiyoriga 2020 yilning 1 yanvardan 1 noyabrgacha yuborish tegishli tashkilot, korxona va xo'jalik raxbarlari roziligi bilan amalga oshirilsin.



7. Tumandagi transport vositalarini texnik ko'rikka jalb qilishda yo'l harakati xavfsizligi

guruhi tarkibiga, tuman avtomotohavaskorlar jamiyati, mahalla fuqarolar yig’ini raislari, tuman ichki ishlar bo’limi xodimlari jamoatchilik asosida qo’shish tavsiya etilsin.

8. Qaror ommaviy axborot vositalarida rasmiy e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

9. Tuman hokimligi axborot xizmati Yo.Qosimovaga, “Istiqbol yo’li” gazetasida rasman e'lon qilish hamda tuman hokimligi rasmiy veb saytiga joylashtirish vazifasi yuklatilsin.

10. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o’rinbosari B.Qurbonov zimmasiga yuklatilsin.

**Tuman hokimi** **I.Novikov**

**Qo’shtepa tuman hokimining**

**2021 yil «11» yanvar**

**№ 03 sonli**

**Qaroriga 2-ilova**

**Majburiy texnik ko’rikni o’tkazish 1-bosqich**

**J A D V A L I.**

| № | Korxona, tashkilot MMTP fermer xujaliklari nomi | Telefon rakami | Jami | Avto | Moto | Tirkama |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Shaxsiy avtomototransportlar | | 11777 | 10352 | 239 | 186 |
| 2. | Moxirbek Plass savdo servis | | 1 | 1 | | |
| 3. | "Shukur Davlat" f/x | | 8 | 7 | | 1 |
| 4. | Fargona PPR | | 5 | 5 | | |
| 5. | Qorajiyda Rovvot f/x | | 3 | 3 | | |
| 6. | "Dadajonov " f/x | | 3 | 3 | | |
| 7. | Transport kolleji | | 1 | 1 | | |
| 8. | Pedagogika kolleji | | 2 | 2 | | |
| 9. | Agrosanoat kasb xunar kolleji | | 3 | 3 | | |
| 10. | Sardoba Sarbon Servis MCHJ | | 3 | 2 | | 1 |
| 11. | Tuman qishloq xujalik kimyo | | 2 | 2 | | |
| 12. | Tuman solik isnpeksiyasi | | 1 | 1 | | |
| 13. | Vodiy avto gaz ta'mir MCHJ | | 3 | 2 | | 1 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 14. | Mullaqayrag’och xolis savdo | 1 | 1 | | |
| 15. | Sarmazor mo’jizaviy oromgox x/k | 2 | 2 | | |
| 16. | Farxod firmasi | 1 | 1 | | |
| 17. | Qo’shtepa Qumtepa Invest Dizayn x/k | 1 | 1 | | |
| 18. | G’ishtmon Fayz Invest MCHJ | 1 | 1 | | |
| 19. | ERK xususiy korxonasi | 15 | 9 | | 6 |
| 20. | “Ok marol” f/x | 4 | 4 | | |
| 21. | Binokor kichik korxonasi | 2 | 2 | | |
| 22. | Oqtepa chorva baraka | 2 | 2 | | |
| 23. | Muzaffar ziyo maskani x/k | 1 | 1 | | |
| 24. | Marg’ilon KMK | 5 | 5 | | |
| 25. | Markaziy shifoxona | 1 | 1 | | |
| 26. | Tuman obodonlashtirish bo’limi | 6 | 6 | | |
| 27. | Tuman inkosatsiya | 1 | 1 | | |
| 28. | Tuman xalq banki | 1 | 1 | | |
| 29. | Tuman xalk ta'limi | 2 | 2 | | |
| 30. | Tuman vetenariya bo’limi | 3 | 3 | | |
| 31. | Farg’ona GGME | 18 | 13 | 5 | |
| 32. | Kushtepa MTP AJ | 3 | 3 | | |
| 33. | Dexqonobod qurilish KTXK | 7 | 5 | | 1 |
| 34. | Bexzod Baxt Trans MCHJ | 21 | 18 | | 3 |
| 35. | Tuman avto yul | 5 | 5 | | |
| 36. | Vatanparvar tashkiloti | 12 | 12 | | |
| 37. | Vodiy gaz ta'minot tuman bo’limi | 14 | 11 | 3 | |
| 38. | Xokimiyat | 4 | 4 | | |
| 39. | “Istikbol yuli” | 1 | 1 | | |
| 40. | Farruxbek-Jamshidbek invest | 4 | 4 | | |
| 41. | Umarov Asqarjon f/x | 1 | 1 | | |
| 42. | Marg’ilon Uzkimyoservis | 18 | 15 | | 3 |
| 43. | Muzaffar ziyo maskani x/k | 2 | 2 | | |
| 44 | Xususiy kichik korxonalarga karashli | 167 | 167 | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | avtotransportlar | | | | |
| 45 | Fermer xo'jaliklari | 64 | 64 | | |
| | Jami: | 425 | 400 | 8 | 17 |

**Majburiy texnik ko'rik o'tkazish 2-bosqich**

**J A D V A L I.**

| № | Korxona, tashkilot MMTP fermer xujaliklari nomi | Telefon rakami | Jami | Avto | Tex mud |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Dadajon F/x | | 1 | 1 | 10.09 |
| 2. | Salox f/x | | 1 | 1 | 12.09 |
| 3. | Muxammadkarim Ravshanbek f/x | | 1 | 1 | 14.09 |
| 4. | Sarmazor Baxt Zamin f/x | | 1 | 1 | 15.09 |
| 5. | Oqmarol f/x | | 1 | 1 | 16.09 |
| 7. | Fargona PPR | | 1 | 1 | 17.09 |
| 8. | Fargona GGME | | 1 | 1 | 19.09 |
| 9. | Bekzod Baxt trans | | 1 | 1 | 21.09 |
| 11 | Po'latxon mo'jizasi MCHJ | | 1 | 1 | 22.09 |
| 12 | Tuman madaniyat bulimii | | 1 | 1 | 23.09 |
| 13 | Kasb Xunar kolleji | | 1 | 1 | 24.09 |
| | Jami: | | 13 | 13 | |

**Qo'shtepa tuman hokimining**

**2021 yil «11» yanvar**

**№ 03 sonli Qaroriga 1-ilova**

**Qo'shtepa tumanida transport vositalarini majburiy**

**texnik ko'rikdan o'tkazish bo'yicha komissiya**



**TARKIBI**

| № | F.I.Sh | Ish joyi va lavozimi |
|---|---|---|
| 1. | Sh.Qosimov | Tuman IIB YXXG katta inspektori, komissiy |
| 2. | I.Sarkorov | Tuman IIB YXXG ma'muriy amaliyot inspek kotibi |
| Komissiya a'zolari | | |
| 3. | V.Zokirov | Tuman avtomotoxavaskorlar kengashi rais |
| 4. | T.Kamolov | Tuman mudofa ishlarini texnikalar buyicha yordamchisi |
| 5. | M.Ergashev | «G’ishtmon Fayz Invest» MCHJ raxbari |
| 6 | E.Xakimov | «G’ishtmon Fayz Invest» MCHJning texnik l bo’yicha mexanigi |

2021-01-13 15:14:12